

TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSI VA UNING O'RGANILISHI

Jo‘rayeva Mehriniso

Termiz davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri sanalgan matn muammosi va uning turli xil olim va tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan jihatlari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: matn, gap, badiiy matn, nutq, nutqiy kommunikatsiya, kommunikativ mohiyat, matn nazariyasi, matn lingvistikasi.

Insonlarning kishilik jamiyatni sifatidagi alohida-alohida qavmlar tarzida birlashishi va birlikda ne-ne mushkulotlarni bartaraf etib, tamaddun deyiladigan taraqqiyot yo‘llarida muntazam odim otmog‘ida ular o‘rtasidagi kommunikatsiya, muloqotning o‘rni, shubhasizki, benihoya muhim. Kommunikativ faoliyatdab tamoman holi bo‘lgan, a’zolari o‘zaro muloqot imkoniyatidan butunlay mahrum bo‘lgan kishilik jamiyatini tasavvur ham etib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya’ni so‘zlovchi(yozuvchi) – axborot(matn)–tinglovchi(o‘quvchi). Mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo‘lmaydi va shular ichida eng muhim muloqot vositasi matn sanaladi. Matn atamasi to‘g‘risida turli xil nazariya va farazlar ilgari surilib, tadqiq etiladi.

“Matn” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matn so‘zining arabchadan o‘zlashganligi, eski kitobiy so‘z ekanligi va aynan tekst so‘zi anglatgan ma’noga teng ekanligiga ishora qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida tekst so‘ziga quyidagicha ta’rif beriladi: 1.Yozilgan,

ko‘chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning parchasi; matn. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo‘lgan she’r, so‘z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi[1,452]. Demak, ushbu ta’riflardan matnning faqatgina yozma shakldagi birlik ekanligi anglashilib turibdi. Yangi tahrirdagi izohli lug‘atda ham yuqoridagi ta’kid saqlanib qolgan: matn [arabcha- yelka, nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi[2,557]. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, matn deganda biz faqatgina yozma ko‘rinishga ega bo‘lgan, ya’ni yozma shakldagi birlikni tushunimiz kerak ekan. Bilamizki, matn aloqa, kommunikatsiya vazifasini o’taydi. Kommunikatsiya esa nafaqat yozma shaklda bo‘lishi, balki og‘zaki shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu nazariyani ba’zi olimlar tasdiqlasa, ba’zi birlari inkor qilishmoqda. O‘ylab qaraydigan bo‘lsak, faqatgina yozuvda ifodalangan nutqni gap deb, matn deb atasak, og‘zaki nutdagi gapni, matn bo‘la olmaydi deyishimiz, mantiqan noto‘g‘ri bo‘lishi ham turgan gap. Chunki har ikkala shaklda ham matn hosil qilinib, har ikkala shaklda ham insonlar o‘rtasida aloqa zanjiri yuzaga kelmoqda. Bu esa matnning vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Matn” so‘zini qo‘llayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda ta’rif berishga harakat qiladi. Matn – ko‘p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo‘lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo‘lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatic, kognitiv, nominative, xususiyatlarini inobatga olish talab qilinadi[3,12]. Matn so‘ziga ta’rif berish va unga har tomonlama to‘g‘ri tavsifni topa olish hozirgi kunda har bir matnshunos, tilshunosning oldida turgan muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Hozirga kelib ham olimlarimiz matn ta’rifi va tavsifi bo‘yicha ma’lum bir to‘xtamga kelishholmagan. Bir xil olimlarimiz matn tavsifi bo‘yicha o‘zlarining ma’lum bir fikrini aytib o‘tsa, boshqa biri ushbu fikrni inkor qilmoqda. Shuni ham inobatga olishimiz darkorki, har bir tadqiqotchining o‘z yo‘nalishi, uslubi bo‘ladi. Matn

borasida ham o‘zlarini qiziqtirayotgan tomondan, ya’ni faqatgina bir tomonlama tadqiqot olib borishlari natijasida matn borasida yakka emas, balki turli fikrlar yuzaga kelmoqda. Olimlar tomonidan berilayotgan hech bir ta’rif matnni mukammal tavsif eta olmaydi.

Matn nazariyasi, matn tavsifi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojlanishida chek (Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, polyak, va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e’tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Ayniqsa, rus tilshunosligida О.И.Москальскаяning xizmatlari benihoya katta hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib esa matn lingvistikasi tarmog‘i deyarli barcha tilshunoslik punktlariga yetib bordi va tadqiqot ishlari olib borilmoqda, matn sohasi bo‘yicha yangidan yangi nazariyalar umumlashmalar kashf etilmoqda, yechilmagan, ochilmagan sirlar o‘z yechimini topmoqda. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, achinarlisi haligacha matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta’riflashda mutaxassislar o‘rtasida yagona va yaxlit fikr mavjud emas, aksincha, bir-biriga qarama qarshi bo‘lgan ikki xil qarsh mavjud. Ayrim tilshunoslар faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan rus tilshunosi Л.М.Лосева “matn” tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo‘lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo‘lishini alohida qayd etadi. Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida ilk o‘laroq bat afsil o‘rganganlardan biri И.Р. Галперин “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar” dan biri sifatida “yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik”ni alohida ta’kidlab ko‘rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir. Ammo matnning yozma yoki og‘zaki ekanligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog‘lik bog‘liq yoki bog‘liq emasligi muallif tomonidan aniq-tiniq qilib ko‘rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi

chegaralanadigan bo'lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o'rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan[4,42,43].

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra shuni xulosa qilishimiz mumkinki, matn bu tarkibidagi birliklar orasida o'zaro bog'lanish, yaxlitlik bo'lgan, matn tarkibida joylashgan har bir gapda tugallik ma'nosi aks etgan, og'zaki va yozma shaklda bo'ladigan, shakl va mazmun jipsligiga ega bo'lgan, makon va zamon hamkorligida tuzilgan, tarkibida qo'llanilgan qismlar bir-biri bilan aloqaga kirishgan, ma'lum bir mavzu doirasi yoritilgan, bitta yaxlit gap yoki bir nechta gaplar tuzilmasi hisoblanadi. Shuningdek, matnning bosh va asosiy vazifasi sifatida kommunikatsiya(muloqot birligi) vazifasi qaraladi va ushbu muloqot birligi maqomiga ega bo'lishi uchun ham matn birligi yuqorida alohida ta'kidlab o'tganimday, nafaqat mazmun, balki strukturavuy(qurilish) jihatidan ham tugal ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, yana matn tadqiqi olib borilayotganganda matnni so'z birikmasi va gapdan farqlash kerakligi, matnning ham o'z kategoriya va qonuniyatları bor ekanligi ilgari suriladi.

Tilshunos M.X.Hakimov matn haqida shunday yozadi: "Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalari borligi, shuning ucun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchi yordamida birikishini o'rganish "Matn tilshunosligi" sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi[5,12;13].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* – Москва, "Русский язык", 1981, 452-bet.
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* – Toshkent, "O'zME" 5 jildlik, 2-jild, 557-bet.
3. *M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili.* – Toshkent, 2008.
4. *M. Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, - Toshkent "Fan" nashriyoti,* 2008.
5. *M. Qurbonov., M. Yo'ldoshev. Matn tilshunosligi.* – Toshkent "Universitet", 2014.